



ISHNI SUDGA QADAR YURITISH BOSQICHIDA XAVFSIZLIGI TA'MINLANISHI LOZIM BO'LGAN SHAXSLARNING TASNIFI

Ashurov Nodir Nayimovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
Ilmiy mutaxassisligi: 12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15730768>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-Iyun 2025 yil
Ma'qullandi: 20-Iyun 2025 yil
Nashr qilindi: 24-Iyun 2025 yil

KEY WORDS

xavfsizlik, huquqiy xavfsizlik,
shaxsiy daxlsizlik, gumon
qilinuvchi, ayblanuvchi,
sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh,
boshqa shaxslar, dalillar

ABSTRACT

Maqolada ishni sudga qadar yuritish bosqichida xavfsizligi ta'minlanishi lozim bo'lgan shaxslarning tasnifi va huquqiy jihatlarini atroflicha tahlil qilingan. Muallif, ushbu bosqichda xavfsizligi ta'minlanishi kerak bo'lgan shaxslar (jabrlanuvchilar, guvohlar, tergovchilar, advokatlar va boshqalar) to'g'risida ilmiy bahslar olib borgan. Maqolada, ushbu shaxslarning xavfsizligini ta'minlashni amalga oshirishda mavjud bo'lgan muammolar va ularni huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilish orqali, xavfsizlikni ta'minlashga oid takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, jinoyat ishini sudga qadar olib borishda xavfsizlikni ta'minlashda amaldagi qonunchilik tizimidagi kamchiliklar va bu tizimni takomillashtirish zarurati ko'rib chiqilgan. Muallif, sudga qadar yuritish bosqichida xavfsizlikni ta'minlashning yuridik jihatlarini chuqur tahlil qilib, uning jamiyat uchun ijtimoiy zaruratini yoritgan. Tahlil jarayonida, mavjud qonunchilikni takomillashtirish va sudga qadar yuritish bosqichida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan konkret takliflar ilgari surilgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ijtimoiy hayotning muayyan sohalari qatorida, jinoyat va jinoyat protsessi qonunchiligida shaxs, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda qonuniylikka amal qilish va umume'tirof etilgan inson huquqlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan bir qator vazifalarni amalga oshirish lozimligi belgilandi¹.

Respublikamizda jinoyatchilik ko'rsatkichi, bunda fosh etilmagan jinoyatlarning ulushi yil sayin ortib borayotganligi, ishni sudga qadar yuritishda odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslarning hamda jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini xavfsizligini ta'minlashning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabr kuni "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4551-sonli Qarori.

samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, jamoatchilikda tergov idoralariga nisbatan ishonch va xayrixohlik hissini oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zarurati mavjudligidan dalolat bermoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini eng oliy qadriyat deb e'lon qilish, ijtimoiy voqelikning barcha sohalarida xavfsizlikka intilish bilan birga, shubhasiz, huquqiy davlat qurish yo'lidagi eng muhim bosqichdir².

Xavfsizlik hodisasi jinoyat protsessida asosiy o'rinni egallaydi, uning davomida xavfsizlik va uni ta'minlash bilan bog'liq turli vaziyatlar va masalalar hal etiladi.

Jinoyat protsessida xavfsizlik fenomenini o'rganish bu haqda yagona tushunchani shakllantirish, huquqiy ta'rifni ishlab chiqish va amaliy muammolarni hal qilishda foydalanish zarurati bilan bog'liq.

Xavfsizlikning ilgari ko'rib chiqilgan tarkibiy elementlari hodisa sifatida ijtimoiy mavjudotning barcha sohalarida bir xil bo'lib ko'rinadi, ammo ularning mazmuni tegishli huquq sohasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishi lozim.

Jinoyat protsessida xavfsizlik tushunchasi ko'plab mualliflar tomonidan uning tarkibiy elementlarini umumiylikni tahlil qilish orqali shakllanadi: xavfsizlik obyektlari; xavfsizlikka tahdid soladigan holatlar yoki xavfsizlikka tahdid; xavfsizlik subyektlari va xavfsizlikni ta'minlash.

Fanda obyektiv voqelik hodisalari va predmetlarining mohiyati, xususiyatlari va belgilari tushunchalar yordamida tavsiflanadi. Ushbu yo'nalishda jinoyat protsessi sohasida xavfsizlikni tushunchalar orqali idrok etiladigan va ta'riflanadigan hodisa deb hisoblash to'g'ri ko'rinadi.

Jinoyat protsessida xavfsizlik obyektlarini hisobga olgan holda, ularni mualliflar tomonidan aniqlashga turli xil yondashuvlarga e'tibor berish lozim.

V.V.Voynikov jinoyat protsessida xavfsizlik obyektiga uchta guruhning himoyalangan manfaatlarini kiritadi: jinoyat protsessi ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i va mulkiy huquqlari; dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlari va sudning odil sudlovni ta'minlash vazifalari; axborot muhiti³.

V.V.Voynikov tomonidan aniqlangan xavfsizlik obyektlarining birinchi guruhi borasida, ushbu guruhni protsessual huquqlar bilan to'ldiradigan D.A.Voronovning tanqidiy fikriga qo'shilish to'g'riroq ko'rinadi⁴. Jinoyat protsessi ishtirokchilari o'zlarining protsessual huquqlarini amalga oshirish orqali uning vazifalarini bajarishga hissa qo'shadilar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga binoan inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Shuning uchun ularni himoya qilish uchun konstitutsiyaviy yoki protsessual mulkiy yoki nomulkiy huquqlarga bo'lish maqsadga muvofiq emas, chunki ularning barchasi muhimdir. Ko'rinib turibdiki, xavfsizlik obyekti jinoyat protsessining har qanday ishtirokchisining huquq va erkinliklari bo'lib, bunga biror-bir trazda ta'sir etilishi jinoyat protsessining vazifalarini bajarishga to'sqinlik qilishiga sabab bo'lishi mumkin⁵.

Sud oldida turgan odil sudlovni amalga oshirish vazifalari va dastlabki tergovni olib boruvchi organlar oldida turgan vazifalarni qo'shimcha xavfsizlik obyekti sifatida ajratib

² Исаев А.Э. Феномен уголовно-процессуальной безопасности // Современная юридическая наука и практика: сб. науч. ст. по матер. IV междунар. науч.-практ. форума. Саратов, 2019. С. 233-236.

³ Войников В.В. Указ. соч. С.12-13.

⁴ Воронов Д.А. Указ. соч. С. 24.

⁵ Исаев А.Э. Указ. соч. С. 233-236

ko'rsatishning hojati yo'qdek tuyuladi. Xavfli ta'sir vazifalarga emas, balki ushbu vazifalarni amalga oshiruvchi protsess ishtirokchilariga qaratilgan bo'ladi.

Axborot muhitiga kelsak, uni xavfsizlik obyekti sifatida aniqlash to'g'ri ko'rinadi. Jinoyat ishining axborot muhitiga quyidagilar kiradi: jinoyat ishi materiallari; dalillarning barcha turlari; jinoyat ishining har qanday ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek tergovning borishi to'g'risidagi ma'lumotlar (tezkor va protsessual ma'lumotlar)⁶.

Jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra, dastlabki tergov ma'lumotlari oshkor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi. Jinoyat ishidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik uchun tergovchi yoki surishtiruvchi jinoyat protsessi ishtirokchilarini dastlabki tergov ma'lumotlarini tegishli ruxsatisiz oshkor qilishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risida ogohlantirib ishtirokchilardan tilxat oladi (JPKning 353-moddasi). Dastlabki tergov ma'lumotlarini tegishli ruxsatisiz oshkor qilish (JKning 239-moddasi) jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Jinoyat protsessi sohasida xavfsizlikning eng muhim obyekti shubhasiz inson hayoti va sog'lig'idir. Shu bilan birga, sog'liq ikki komponentdan iborat: jismoniy va ruhiy. Xavfsizlik obyektiga bunday yondashuvni ko'plab mualliflarda uchratish mumkin⁷.

M.V.Novikova xavfsizlikni "jinoyat protsessi ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i, huquqlari va qonuniy manfaatlarini, shuningdek ularning mol-mulkini har qanday tajovuzlardan himoya qilish holati va ushbu shaxslarning o'z vazifalarini erkin bajarishi va jinoyat protsessida o'z huquqlarini amalga oshirishi" deb tariflaydi⁸.

Ushbu konsepsiyadan, ko'rib chiqilgan xavfsizlik obyektlaridan tashqari, jinoyat protsessi ishtirokchilarining qonuniy manfaatlarini, shuningdek ularga yuklatilgan vazifalarni erkin bajarish va jinoyat protsessida o'z huquqlarini amalga oshirish qobiliyatini ajratish mumkin.

D.A.Voronov jinoyat protsessida xavfsizlik obyektni "erkinlikning dialektik birligi va shaxsning jinoyat-protsessual huquq va majburiyatlarini amalga oshirish imkoniyati" sifatida nazarda tutadi⁹. Shu bilan birga, muallifning so'zlariga ko'ra, jinoyat protsessual maqomini amalga oshirish erkinligi "... jinoyat protsessi ishtirokchisining irodasi va uning oqibatida kelib chiqadigan jinoyat-protsessual xatti-harakatlarning (qaror qabul qilish va jinoiy protsessga tegishli harakatlarni sodir etish) xavfsizlikka tajovuz qiladigan ta'sirdan mustaqilligini ta'minlaydigan shartlar to'plamidir". Jinoyat-protsessual huquq va majburiyatlarni amalga oshirish imkoniyati – bu protsess ishtirokchilarining barcha huquq va majburiyatlarini tashkiliy-huquqiy qo'llab-quvvatlashning mavjudligi bo'lib, masalan, jinoyat protsessining ishtirokchisi mutanosib kompensatsiya yo'qligi sababli odil sudlovga yordam berishdan bosh tortadi¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 270-moddasida nazarda tutilgan protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashga oid normalari haqida so'z yuritganda, ushbu

⁶ Войников В.В. Указ. соч. С. 144.

⁷ Брусницын Л.В. Обеспечение безопасности лиц, содействующих уголовному правосудию: мировой опыт и развитие российского законодательства (процессуальное исследование). М., 2010. С. 3; Шапакидзе В.Я. Обеспечение процессуальной безопасности частных лиц в досудебном уголовном производстве: дис. ... канд. юрид. наук. Волгоград, 2002. С. 12; Епихин А.Ю., Мишин А.В. Обеспечение безопасности лиц, содействующих уголовному судопроизводству. Казань, 2018. С. 26.

⁸ Новикова М.В. Указ. соч. С. 19.

⁹ Воронов Д.А. Указ. соч. С. 27.

¹⁰ Шапакидзе В.Я. Указ. соч.

Kodeksning protsessal chiqimlar bilan bog'liq normalariga ham to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuni aytish kerakki, jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni protsessual chiqimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mazkur institut jinoyat ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida protsessual harakatlarni amalga oshirishni tashkiliy-moddiy jihatdan ta'minlaydi, ishtirokchilarning mulkiy manfaatlarini himoyalaydi. Umumiy qilib aytganda, u jinoyat protsessining moliyaviy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Protsessual chiqimlar mustaqil huquq instituti sifatida amaldagi Jinoyat-protsessual kodeks 40-bobida aks etgan. Shuningdek, JPKning 75-moddasida jabrlanuvchilar va ularning vakillariga, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislariga ularning sarf xarajatlarini to'lash majburiyati e'tirof etilgan. Bundan tashqari, JPKning 212, 288, 304, 380, 381¹², 457, 471, 572-moddalarida ham protsessual xarajatlar instituti bilan bog'liq masalalar bayon qilingan.

Protsessual chiqimlar instituti o'z mohiyatiga ko'ra, jinoyat protsessi ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini kafolatlaydi. JPK hamda boshqa qonunosti hujjatlarni tahlil qilish jarayonida yetarli darajada tartibga solinmagan ayrim munozarali masalalar ko'zga tashlanadi:

birinchidan, JPKning 318-moddasida, jabrlanuvchining qonuniy vakili, fuqaroviy da'vogar, guvohning advokatiga protsessual harakatlar o'tkaziladigan joyga kelib ketish, turar joyni ijaraga olish xarajatlarini qoplash uchun, shuningdek sutkalik xarajat puli tariqasida beriladigan summalar to'lanilishi nazarda tutilmagan.

ikkinchidan, JPKning protsessual chiqimlar va ularni qoplash deb nomlangan 40-bobida tarjimon xizmati uchun xarajatlar miqdorini belgilovchi norma mavjud emas. Biroq, Kodeksning 75-moddasida, tarjimonning o'z majburiyatlarini bajarganligi uchun sarf xarajatlar qonunda belgilangan tartibda va miqdorda to'lanishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarining qilgan xarajatlarini to'lash tartibi va miqdorlari to'g'risida"gi 1992-yil 3-iyuldagi Qonuni (03.08.2022-yildagi O'RQ-786-sonli Qonuni bilan 2022-yil 5-noyabrdan o'z kuchini yo'qotgan)da tarjimon o'z majburiyatlarini bajarganligi uchun sarf xarajatlarni to'lash tartibi va miqdori belgilangan bo'lsada, tahlil qilingan hisobotlarga ko'ra, Respublikamizda 2022- yilning o'n oyi davomida 2 nafar tarjimonga nisbatan jami 14.230.200 so'm to'lov, 2021-yil davomida 2 nafar tarjimonga nisbatan jami 1.505.200 so'm to'lov amalga oshirilgan bo'lib, 2020-yil davomida tarjimon xizmati uchun to'lov amalga oshirilmagan.

Shuningdek, doimiy mashg'ulotdan qoldirilganligi uchun, protsessual harakatlar amalga oshirish joyiga chaqirilganligi uchun protsess ishtirokchilariga 2020-yilda, 2021-yilda va 2022-yilning o'tgan o'n oyi davomida protsessual chiqimlar uchun to'lovlar amalga oshirilmagan.

Yuqoridagi ko'rsatgichlar shuni ko'rsatadiki, protsessal chiqimlarni undirish bilan bog'liq qonun normalari nomigagina mavjud bulib, ular amalga ijro etilmasdan qolmoqda;

uchinchidan, JPKning 319-moddasida jabrlanuvchining qonuniy vakilini surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga chaqirilganligi bilan bog'liq butkul vaqt uchun uning ish joyida o'rtacha ish haqi saqlab qolinishi nazarda tutilmagan.

Qonundagi bunday yondashuv, qonun chiqaruvchi jinoyat protsessining ayrim ishtirokchilari manfaatlariga ustuvorlik berishga urinishi odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish prinsipiga zid hisoblanadi;

to'rtinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 320-moddasi oltinchi qismiga ko'ra, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga qonunda belgilangan tartibda chaqirilgan protsess ishtirokchisining uzrsiz sabablarga ko'ra kelmasligi oqibatida ishning sudda ko'rilishini yoxud tergov harakatlari o'tkazishni kechiktirish bilan bog'liq protsessual chiqimlar ana shu kelmagan shaxsdan undiriladi.

Biroq, mazkur qonun normasi amalda ijro etilmadan qolmoqda. JPKning protsess ishtirokchilari huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan moddalarida ushbu normani aks ettirish, protsess ishtirokchisining mas'uliyatini oshirish bilan bir qatorda uning javobgarligini ham belgilaydi;

beshinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 320-moddasi yettinchi qismida, advokat uzrsiz sabablarga ko'ra kelmagani uchun tegishli advokatlar byurosiga, hay'atiga yoki firmasiga moddiy javobgarlik yuklatilishi mumkinligi qayd etilgan bo'lsada, ammo qonun chiqaruvchi himoya huquqini ta'minlovchi advokat bilan teng maqomda bo'lgan davlat ayblovchisining uzrsiz sabablarga ko'ra sudga kelmagani uchun zimmasiga moddiy javobgarlikni yuklashni nazarda tutmagan. Bu esa o'z- o'zidan taraflarning o'zaro tenglik prinsipi buzilishiga olib keladi;

oltinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 320-moddasi to'qqizinchi qismida, jabrlanuvchining shikoyati bo'yicha qo'zg'atilgan ish yuzasidan sudlanuvchi oqlangan taqdirda sud protsessual chiqimlarni ish yuritilishiga sabab bo'lgan shikoyatni bergan shaxsdan to'liq yoki qisman undirishga haqli ekanligi ko'rsatilgan. Jinoyat qonunchiligiga ko'ra, isbotlash majburiyati jinoyat ishini yuritishda mas'ul bo'lgan davlat organlari, mansabdor shaxslar zimmasiga yuklatilgan. Sudlanuvchining oqlanishi garchand, uni jinoyat sodir etganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo'lsada, ammo ushbu dalillar uni ayblash uchun yetarli bo'lmaganligi (dalillar yo'q qilingan, oradan ancha muddat o'tganligi bois dalillar yaroqsiz bo'lib qolgan, guvohlar yolg'on ko'rsatuv berganligi va boshqa) sababli kelib chiqqan bo'lsa, bunday holatda protsessual chiqimlarni shikoyat bergan shaxsdan undirish fikrimizcha asossiz va mantiqsiz hisoblanadi. Agar shikoyat bergan shaxsning harakatlarida yolg'on ko'rsatuv berish yoki tuhmat qilish kabi jinoyat alomatlari aniqlansa, bunday holatda protsessual chiqimlarning uning zimmasiga yuklatishni belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi;

yettinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksining 542-moddasi birinchi qismiga ko'ra, hukmni ijro etish to'g'risidagi masalalar sudya tomonidan prokuror hamda mahkum ishtirokida sud majlisida hal qilinadi. Mahkumning ushbu Kodeks 532-moddasida nazarda tutilgan huquqlari ta'minlanadi. Sudya voyaga yetmagan, shuningdek jismoniy nuqsonlari bo'lgan yoki ruhiy holati buzilgan mahkumlarga doir hukmlarni ijro etish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqayotganida himoyachi ishtirok etishi shart.

Jinoyat-protsessual kodeksining 580-moddasiga ko'ra, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini uzaytirish, o'zgartirish yoki tugatish va ish yuritishni umumiy tartibda tiklash to'g'risidagi masalalarni sud tomonidan ko'rib chiqishda, sud majlisida prokuror va himoyachining ishtirok etishi shart.

Ish bo'yicha voyaga yetmagan, shuningdek jismoniy nuqsonlari bo'lgan yoki ruhiy holati buzilgan mahkumlarga doir hukmlarni ijro etish bilan bog'liq masalalar, ya'ni mahkumni kasalligi, nogironligi sababli jazoni o'tashdan ozod etish to'g'risidagi, jazoni muddatidan ilgari ozod qilish haqidagi, jazoni shartlilikini bekor qilish haqidagi, bir jazoni o'tash koloniyasidan boshqa tartibli koloniyaga o'tkazish haqidagi va shu kabi boshqa ishlarda shuningdek, tibbiy

yo'sindagi majburlov chorasini uzaytirish, o'zgartirish yoki tugatish va ish yuritishni umumiy tartibda tiklash to'g'risidagi masalalarni sud tomonidan ko'rib chiqishda advokat tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun to'lovni amalga oshirish tartibi qonunda belgilanmagan;

sakkizinchidan, Vazirlar Mahkamasining "advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan haq to'lash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2008-yil 20-iyundagi 137-sonli qaroriga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sudlanuvchi himoyachidan voz kechish bilan bog'liq protsessual harakatda advokat ishtirok etishi hollarida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi JPK 52-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq jinoyat ishida himoyachining qatnashishi majburiy deb hisoblangan hollarda ham yuridik yordam uchun haq to'lash bo'yicha xarajatlar davlat hisobiga o'tkazilishi qayd etilgan¹¹.

Adliya vazirligi va Moliya vazirligining "gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sudlanuvchining advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun xarajatlardan ozod qilingan hollarda yuridik yordam uchun xarajatlar davlat hisobiga o'tkazilishi tartibi belgilangan¹².

Oliy sud Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi "Jinoyat ishlari bo'yicha protsessual chiqimlarni undirish amaliyoti to'g'risida"gi 13-son qarorida sudlar tomonidan jinoyat ishlarini yuritishda protsessual chiqimlarni qoplash masalasida JPK, qonun va qonunosti hujjatlarga amal qilishlari lozimligi haqida tushuntirishlar berilgan.

Yuqorida qayd etilgan har ikkala qonunosti hujjatlar, jinoyat ishi doirasida advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun haq to'lash tartibi va miqdorini belgilashni nazarda tutadi xolos. Biroq, hukm, ajrim, qarorni ijro etish bilan bog'liq masalalarni hal etishda advokat ishtiroki shart bo'lgan protsessual harakatlarda advokat uchun haq to'lash tartibi, biror qonun yoki qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinmagan.

O'zbekiston Respublikasining "Guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarning qilgan xarajatlarini to'lash tartibi va miqdorlari to'g'risida"gi Qonuni 1992-yilda qabul qilingan bo'lsa-da, ushbu qonun amalda ishlamagan, ushbu qonun o'rniga biror-bir normativ hujjat qabul qilinmasdan, 03.08.2022-yildagi O'RQ-786-sonli Qonun bilan o'z kuchini yo'qotganligi ham, bu qonunga biror zarurat yo'qligini anglatadi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 1-moddasiga ko'ra, Respublika hududida jinoyat ishlarini yuritish tartibi JPK bilan belgilanishi, jinoyat ishlarini yuritishning ushbu Kodeksda belgilangan tartibi barcha sudlar, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari, advokatura, shuningdek fuqarolar uchun yagona hamda majburiydir.

Ushbu kodeks mazmunidan kelib chiqib, protsessual chiqimlarning turlari, ularni qoplash tartibi va asoslari jinoyat ishlarini yuritishning yagona tartibini belgilovchi Jinoyat-protsessual kodeksi bilan tartibga solinishi shart hisoblanadi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan haq to'lash mexanizmini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2008-yil 20-iyundagi 137-sonli qarori.

¹² O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi va Moliya vazirligining "gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 2008-yil 26-noyabrdagi 8-son, 109-sonli qarori (02.12.2008-yilda 1878-son bilan Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4850-sonli Farmoni, 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3723-sonli qarorlarida "Jinoyatdan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash va ko'maklashishning samarali mexanizmlarini o'rnatish"ga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Unga asosan, jabrlanuvchilarning, guvohlarning va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i hamda mol-mulkiga tajovuz tahdidi mavjud bo'lganda qo'llaniladigan, jinoyatlarning oldini olishga yoki ularni fosh etishga ko'maklashadigan, xavfsizlik va ijtimoiy himoya qilish choralari o'z ichiga oladigan chora-tadbirlar tizimini, shuningdek, ularni qo'llashning asoslari hamda tartibining umumiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Lekin yuqoridagi normativ hujjatlarda jabrlanuvchilarga kompensatsiya to'lash masalasining aniq mexanizmi ishlab chiqilmagan. 1985-yil 29-noyabrda BMT tomonidan "Jinoyat va hokimiyatni suiiste'mol qilish jabrlanuvchilari uchun adolatning asosiy tamoyillari to'g'risida"gi Deklaratsiyasi qabul qilingan. Unga ko'ra, jabrlanuvchilarga yetkazilgan zarar huquqbuzar tomonidan to'liq undirib olinishi aytib o'tilgan. Agar yetkazilgan zararni xuquqbuzardan yoki boshqa manbalardan qoplash imkoniyati mavjud bo'lmasa, davlat jabrlanuvchilarni kompensatsiya bilan ta'minlash choralari ko'rishi lozimligi qayd etilgan. Ushbu hujjatda jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar quyidagi usullar orqali ta'minlanishi ko'rsatilgan: Restutsiya; Kompensatsiya; Reabilitatsiya; Jabrlanuvchilarga zarur bo'lgan moddiy, tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida reabilitatsiya hamda jabrlanuvchilarga zarur moddiy, tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish amaliyoti qo'llanilib kelmoqda. Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasida reabilitatsiya uchun asoslar mavjud bo'lib, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa, uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa, uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa, shaxs aybsiz deb topilishi va reabilitatsiya etilishi lozimligi aks etgan. Reabilitatsiya etilgan shaxs qonunga xilof ravishda ushlab turilgani, ehtiyot chorasi sifatida qonunga xilof ravishda qamoqda saqlangani yoki uy qamog'iga joylashtirilgani, pasportining amal qilishi qonunga xilof ravishda to'xtatib turilgani, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingani tufayli vazifasidan qonunga xilof ravishda chetlashtirilgani yoxud tibbiy muassasaga qonunga xilof ravishda joylashtirilgani natijasida unga yetkazilgan mulkiy zararni undirish hamda ma'naviy ziyon oqibatlari bartaraf etilishini talab qilish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan. Bundan tashqari, jabrlanuvchilarga zarur moddiy, tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish amaliyoti ham joriy etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 5-noyabrdagi "Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazini tashkil etish to'g'risida"gi 240-sonli qaroriga asosan Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi o'z faoliyatini olib bormoqda. Bundan tashqari, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazi ham o'z faoliyatini samarali olib bormoqda. Ushbu markazlarda jabrlanuvchilarga

tibbiy, psixologik, yuridik va ijtimoiy yordam ko'rsatilib kelinmoqda.

Jinoyat protsessida ishtirokchilar xavfsizligini ta'minlash instituti Jinoyat-protsessal kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu Qonunning 26-moddasiga ko'ra, himoya qilinuvchi shaxslarni himoya qilish choralari moliyalashtirish va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash budjet mablag'lari hamda himoya qilishni ta'minlovchi davlat organlariga shu maqsadlar uchun ajratiladigan, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Himoya qilinuvchi shaxslarni himoya qilishni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar ushbu shaxslarning zimmasiga yuklatilishi mumkin emas.

Protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan choralar ishtirokchilarning huquqlarini, qonuniy manfaatlarini kafolatlash bilan bir qatorda tabiiyki protsessual chiqimlarni taqazo etadi.

Jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida ham, sud muhokamasi davomida ham qo'llanilishi nazarda tutilgan xavfsizlik choralari qo'llash bilan bog'liq xarajatlarni protsessual chiqim sifatida ko'rsatish va jinoyat protsessual qonunchiligi tegishli normalarida qayd qilinishi protsess ishtirokchilarining mulkiy huquqlarini ta'minlovchi jinoyat ishlarini yuritishda protsessual chiqimlarni tartibga soluvchi yagona protsessual institutni shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu o'rinda jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum kabi ishtirokchilarni himoya qilish choralari ko'rish bilan bog'liq xarajatlarni ham protsessual xarajatlarga kiritish to'g'rimi, degan savol tug'ilishi mumkin.

Fikrimizcha, ushbu shaxslarni himoya qilish choralari ko'rish bilan bog'liq xarajatlarni protsessual xarajatlar toifasiga kiritish qonunan va mantiqan to'g'ri bo'ladi. Negaki, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki ularning yaqin qarindoshlarining xavfsizligiga ushbu jinoyat ishiga aloqasi bo'lgan yoki tergov davomida fosh qilinmagan boshqa jinoyatchilar yoxud jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari tomonidan tahdidlar qilinishi mumkin. Mavjud tahdidlardan himoya qilish choralari o'z vaqtida ko'rilmassligi jinoyat protsessi ishtirokchilarining o'z zimmasidagi protsessual majburiyatlarini bajarmasliklariga sabab bo'lib, isbot qilish jarayoniga salbiy ta'sir etishi mumkin. Bundan tashqari, ish bo'yicha jabrlanuvchining qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish bilangina cheklanib, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi hamda ularning yaqin qarindoshlarining hayoti, sog'lig'i, mulki va boshqa manfaatlarini xavf ostida qoldirish jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining maqsad va vazifalari hamda prinsiplariga ham zid hisoblanadi.

Shu sababli, jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish choralari ko'rish bilan bog'liq xarajatlarni to'lig'icha protsessual xarajatlarga kiritish va amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksiningning 318-moddasi birinchi qismini *"protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlardan"* degan 72-band bilan to'ldirish lozim bo'ladi.

Fikrimizcha, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish maqsadida alohida fond tashkil etish va ushbu fond xuquqbuzarliklar uchun to'langan jarimalar, mahkumlarning ish haqlari, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar, jinoyatchilarning xatlangan va sotilgan mulki hisobidan to'ldirib borilishi

lozim.

Protsess ishtirokchilarining qonuniy manfaatlariga kelsak, agar ular qonunga asoslangan manfaatlar bo'lsa hamda ularga nisbatan bo'ladigan jinoiy ta'sir odil sudlovni amalga oshirishda to'siqlar yaratishi mumkin bo'lsa, ularni xavfsizlik obyektlari tarkibiga kiritish to'g'riroq ko'rinadi.

Ba'zi mualliflar hayotiy manfaatlarni jinoyat protsessining xavfsizlik obyekti sifatida haqli ravishda ajratib ko'rsatadilar. Bunda hayot, sog'liq, mulk, shuningdek shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini nazarda tutadilar.

A.Yepixin tomonidan ilgari surilgan xavfsizlik tushunchasi tahlil qilinganda, muallif o'z qarashlarida jinoyat protsessida himoya qilinadigan shaxsni himoya qilish obyektiga murojaat qilishiga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaydi. Shaxs deganda uning protsessual maqomidan, shuningdek konstitutsiyaviy huquqlarga ega bo'lishi va ularga rioya etilishidan, davlat tomonidan himoya qilinishi zarurligidan qat'iy nazar, jinoyat protsessida ishtirok etuvchi har qanday shaxs deb hisorblaydi¹³. Xuddi shunday L.V.Brusnisin shaxsni xavfsizlikning obyekti sifatida ko'rsatadi¹⁴.

Shunday qilib, ba'zi mualliflar shaxsni, individni xavfsizlik obyekti deb atashsa, boshqalari jinoyat protsessi ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmat, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga murojaat qilishadi. Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi xavfsizlik obyektlariga nisbatan ishlatiladigan terminologiyaning ikkala varianti ham joizdir, chunki hayot, sog'liq, huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlar ularning tashuvchisining shaxsiyati bilan uzviy bog'liqdir. Quyidagi savol muhim ahamiyatga ega: kimning hayoti, huquq va erkinliklari, aynan qaysi shaxslar jinoyat protsessida xavfsizlik obyekti hisoblanadi? Nafaqat guvohlar, jabrlanuvchilar, ularning qarindoshlari va yaqin kishilari, balki tergovga qadar tekshiruv organlari xodimlari, surishtiruvchilar, tergovchilar, prokurorlar, sudyalari, xalq maslahatchilari, sud majlisi kotiblari gumon qilinuvchi (ayblanuvchi), sudlanuvchi, mahkum, shuningdek qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik muddati tugallangan yoki olib tashlangan shaxs ham himoya qilinadi. Ayrim shaxslar oqlov (ayblov) hukmi e'lon qilinganidan keyin ham yoki jazoni o'tash paytida ham himoyaga muhtoj bo'lishi mumkin¹⁵.

Tergovchi, surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruv organlari rahbar va xodimlari, tergov organi rahbari, surishtiruv organi rahbari, prokuror, sudya, sud majlisi kotibi, xalq maslahatchilarining hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmat, mol-mulkiga nisbatan jinoiy tajovuzlar ularga qonun bilan berilgan vakolatlarning erkin amalga oshirilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bois, jinoyat protsessining xavfsizligi obyektlariga jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslarni kiritish lozim.

Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasiga muvofiq, jinoyat protsessi ishtirokchilarining ham, ularning yaqin qarindoshlarining huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolati qonuniy ravishda belgilangan. Yuqoridagi norma O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida ham qayd etilgan.

¹³ Yepixin A.Yu. Концепция обеспечения безопасности личности в сфере уголовного судопроизводства: дис. ... д-ра юрид. наук. Сыктывкар, 2004. С. 114-131.

¹⁴ Брусницын Л.В. Правовое обеспечение безопасности лиц, содействующих уголовному правосудию. М., 1999. С. 3

¹⁵ Епихин А.Ю. Указ. соч. С. 120

D.A.Voronov jinoyat protsessi ishtirokchilarining yaqin shaxslari xavfsizlik obyektlariga kiritilmasligi lozim, chunki ularni himoya qilish faqat daliliy ma'lumot manbai bo'lgan protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash vositasidir¹⁶ deb hisoblaydi. Bu borada qonun chiqaruvchining pozitsiyasi yanada ishonchli ko'rinadi. Ba'zi mualliflar haqli ravishda hayoti, sog'lig'i, huquq va erkinliklari jinoiy tajovuzlardan himoya qilinishi lozim bo'lgan shaxslarning tarkibini kengaytirishni taklif qilmoqdalar. Masalan, tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi qo'zg'atish bosqichida ariza beruvchi, guvoh, jinoyat qurboni muayyan protsessual maqomga ega emas va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari ularga to'liq tadbiiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi talabiga ko'ra, yuridik shaxslar jinoyat protsessi ishtirokchilari hisoblanmasada, jinoyat ishi bo'yicha nafaqat jismoniy shaxslarga, balki yuridik shaxslarning mol-mulkiga yoki ishbilarmonlik obro'siga zarar yetkazilish ehtimoli ham mavjud. Ushbu yo'nalishda yuridik shaxslarning mulkiy va ishbilarmonlik obro'sini jinoyat protsessi sohasidagi xavfsizlik obyekti sifatida ko'rib chiqish to'g'ri ko'rinadi.

Shu bois JPKning 270-moddasi birinchi qismini quyidagi mazmunda to'ldirish lozim bo'ladi:

"Jabrlanuvchi, guvoh yoki jinoyat ishida ishtirok etayotgan boshqa shaxslar, shuningdek ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlariga nisbatan o'ldirish, tan jarohati yetkazish, mol-mulkini yo'q qilish yoki unga zarar yetkazish, shuningdek boshqa g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar bilan tahdid qilinayotgani haqida yetarli asoslar mavjud bo'lgan hollarda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ularning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati va mol-mulkini himoya qilish, shuningdek aybdor shaxslarni aniqlash va ularni javobgarlikka tortish choralari ko'rishlari shart.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud jinoyat protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari qo'llash to'g'risida qaror qabul qilishga haqlidir.

Mazkur qaror jinoyat ishining tergovga tegishliligi inobatga olingan holda tegishli ichki ishlar organlari yoki O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatiga yuboriladi.

Agar jinoyat ishi sud yoki prokuratura organlari yurituvda bo'lsa, himoya choralari qo'llash to'g'risidagi qaror himoya qilinayotgan shaxslar joylashgan yerdagi ichki ishlar organlariga beriladi.

Ichki ishlar organlari va O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tahdid tahdid solayotgan shaxslarga oid jinoyat ishidagi mavjud ma'lumotlardan, bu xavfning ehtimoliy xususiyati, manbalari, sodir etilishi mumkin bo'lgan joyi, vaqti va boshqa holatlari haqida o'z vaqtida xabardor qilinishi lozim".

Jinoyat protsessida xavfsizlik obyektlari haqida turli mualliflarning nuqtai-nazarlarini umimlashtirib, quyidagi to'xtamga kelish mumkin: 1) jinoyat protsessining barcha ishtirokchilarining, shu jumladan xavfli ta'siri qonun bilan ularga berilgan vakolatlarni erkin amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organlari mansabdor shaxslarining, shu jumladan ularning qarindoshlari shuningdek protsessual maqomga ega bo'lmagan ammo jinoyat protsessida ishtirok etgan shaxslarning

¹⁶ Воронов Д.А. Указ. соч. С. 23.

hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmat¹⁷; 2) jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari hamda mol-mulki; 3) yuridik shaxslarning mulki va ishbilarmonlik obro'si; 4) muayyan jinoyat ishi bo'yicha axborot muhiti.

Jinoyat protsessi sohasidagi xavfsizlik subyektlariga kelsak, protsessual adabiyotlarda ularni tasniflash uchun turli asoslar mavjud: Vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalar; qonuniy manfaatlar;

protsessning muayyan ishtirokchisining roli va maqsadi; protsessual va boshqa faoliyatning maqsadlari.

Yuqoridagi bo'linmalar huquqni amalga oshirish kontekstida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, jinoyat protsessida xavfsizlik fenomeni nafaqat qonunni amalga oshirish protsessida, balki qonun ijodkorligi protsessida ham ko'rib chiqilishi lozim. Jinoyat protsessida xavfsizlik masalalarini hal qilish bilan bog'liq bo'lgan protsess asosida muayyan huquq subyektlari qonun ijodkorligi yoki huquqni qo'llash protsessida ishtirok etadilar, ularni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin.

Birinci guruhga, jinoyat-protsessual sohasida xavfsizlik masalalari va uni ta'minlash bo'yicha qonunchilikni amalga oshiruvchi vakolatli shaxslar va organlar kiradi.

Ikkinchi guruhga, jinoyat protsessi sohasida xavfsizlik va uni ta'minlashni tartibga soluvchi huquqiy qoidalarni qo'llashni amalga oshiruvchi barcha shaxslar va organlar.

Ikkinchi guruhni quyidagi kichik guruhlarga bo'lish mumkin:

1) jinoyat protsessining ishtirokchilari, shuningdek xavfsizlikni ta'minlash vakolatiga ega bo'lgan boshqa shaxslar va organlar;

2) xavfsizligi ta'minlangan jinoyat protsessining ishtirokchilari, shuningdek boshqa shaxslar.

Vakolatga ega bo'lgan birinchi kichik guruh ishtirokchilarini quyidagilarga bo'lish mumkin: xavfsizlikni ta'minlash to'g'risida qaror qabul qiluvchilar; xavfsizlikni amalga oshiruvchilar; xavfsizlik ustidan nazoratni amalga oshiruvchilar.

Qonun chiqaruvchi protsess ishtirokchilarini himoya qilishni ta'minlash to'g'risidagi qaror qaror qabul qiluvchi organlarga: tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organ; surishtiruv organi; dastlabki tergov organlari; sud (sudya)ni kiritadi. Shuningdek, vaqtincha saqlash hibsxona rahbari va Tergov hibsxonasi rahbari vaqtincha saqlash va tergov hibsxonasida saqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etadilar.

Xavfsizlikni ta'minlash uchun bevosita javobgar shaxslar va organlar tarkibiga tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi barcha organlar kiradi, shu jumladan: ichki ishlar organlari; davlat xavfsizlik xizmati; Jazoni ijro etish tizimi organlari va muassasalari (tergov hibsxonasida yoki jazoni o'tash joylarida bo'lgan shaxslarga nisbatan xavfsizlik choralarini amalga oshirish);

Xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha nazorat faoliyati: Tergovga qadar tekshiruv organi rahbari; surishtiruv organi rahbari; tergov organi rahbari; prokuror; jinoyat ishi yuritilayotgan sud (sudya).

Jinoyat-protsessual kodeksi va "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga muvofiq:

¹⁷ Исаев А.Э. Феномен уголовно-процессуальной безопасности // Современная юридическая наука и практика: сб. науч. ст. по матер. IV междунар. науч.-практ. форума. Саратов, 2019. С. 233.

- 1) jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili;
- 2) guvoh;
- 3) jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi;
- 4) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning himoyachilari va qonuniy vakillari;
- 5) mahkum, oqlangan shaxs, o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan shaxs;
- 6) fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari;
- 7) ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolis.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarning oila a'zolari va yaqin qarindoshlari ham himoya qilinuvchi shaxslar bo'lishi mumkin.

Himoya qilish choralari jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar arizachiga, jinoyat shohidiga yoki jinoyatning oldini olishga yoxud uni fosh etishga ko'maklashuvchi shaxslarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

Ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan tartibda davlat muhofazasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilingan hollarda ular "himoya qilinadigan shaxslar" deb yuritiladi. Bu hol xavfsizlik choralaridan tashqari ularga nisbatan ijtimoiy himoya choralari ham qo'llanilishini anglatadi.

Shaxsning xavfsizligini ta'minlash, jumladan protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashni tartibga soluvchi amaldagi qonunchilikni tahlil qilganimizda, qonun normalari o'rtasida ayrim holatlar ko'zga tashlanadi. Jumladan: Jinoyat-protsessual kodeksi ikkinchi bo'limi, jinoyat protsessi ishtirokchilari deb nomlanib, unga ko'ra, ishtirokchilar protsessual mavqeiga ko'ra, to'rt turga ajratilgan. Bular, jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi jamoat birlashmalari, jamoalar va ularning vakillari, jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslar, jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar.

Biroq, Jinoyat-protsessual kodeksi 270-moddasida, jabrlanuvchi, guvoh, yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning, shuningdek ularni oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlari xavfsizligini ta'minlash nazarda tutilgan bo'lib, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ichki ishlar organlariga zarur choralar ko'rish to'g'risida yozma topshiriq berishga haqli deb ko'rsatilgan. Biroq, ushbu moddada, qonun normalari umumiy mazmunda qayd etilgan bo'lib, bunda barcha protsess ishtirokchilarining xavfsizligi ta'minlanishi kafolatlanmagan, ishtirokchilarga tahdid mavjudligi haqida yetarli ma'lumot deganda qanday ma'lumotlar nazarda tutilganligi, shuningdek xavfsizlikni ta'minlovchi qanday choralar ko'rilishi mumkinligiga oid biror norma mavjud emas. Bundan tashqari, zarur choralarni ko'rish xususida yozma topshiriqni ijro qilish tartibi, muddati hamda mexanizmiga oid biror qoida mavjud emas.

Garchand, Jinoyat-protsessual kodeksida belgilanmagan bo'lsa-da surishtiruvchi, tergovchi tergov harakatlarini amalga oshirishda tergov harakati ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida kuch ishlatar bo'linmalar vakillarini jalb etish holatlari uchraydi¹⁸.

Uyushgan jinoiy guruh a'zolarini qo'lga olish jarayonida o'tkaziladigan ko'zdan kechirish, tintuv, olib qo'yish va boshqa protsessual harakatlarni amalga olishirishda jinoiy

¹⁸ Таҳлиллар бугунги кунда суришт иррувчи, терговчи томонидан тергов ҳаракатларини ўтказишда ИИО Махсус операцияларни муворфиқлаштириш бўлинмаларини жалб этиш ҳолатлари мавжудлигини кўрсатади.

guruh a'zolari tomonidan qarshilik ko'rsatilishi, protsess ishtirorkchilariga yoki yon atrofdagi shaxslarga nisbatan tahdid qilinishi, hattoki qurolli hujum sodir etilishi mumkin bo'lib, salbiy oqibat kelib chiqishini oldini olish maqsadida tezkor va tergov harakatlarini o'tkazishda avvalo xavfsizlikni ta'minlash taqazo etadi.

Xuddi shunday, uyushgan jinoiy guruh a'zolarini aysblashga oid jinoyat ishini sudda ko'rish davomida ham salbiy oqibat kelib chiqishini oldini olish maqsadida sud tarkibi va sud muhokamasida ishtirok etuvchi shaxslarning xavfsizligini ta'minlash loozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida, himoya qilinuvchi shaxslar doirasi aniq ko'rsatilgan bo'lsa-da, biroq jabrlanuvchining vakili, guvohning advokati, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ rahbari, xodimi, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror, sudya, xalq maslahatchilari, sud majlisi kotibi, jinoyat protsessining ishtirokchisi maqomini olmagan boshqa shaxslar, shuningdek yuqorida aytib o'tilgan shaxslarning yaqin qarindoshlari jinoiy taqibga uchrashi ehtimoli mavjud bo'lsada ularning himoya qilinishi qonun hujjatlari bilan kafolatlanmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xavfsizlik va himoya choralari qo'llaniladigan jinoyat protsessi ishtirokchilari va ishtirokchi bo'lmagan shaxslarning ro'yxatini to'ldirib, O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi birinchi qismini quyidagi bandlar bilan to'ldirish lozim bo'ladi:

1¹) jabrlanuvchining vakili;

2¹) guvohning advokati;

7¹) tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ rahbari, xodimi, surishtiruvchi, surishtiruv organi rahbari, tergovchi, tergov organi rahbari va prokuror, sudya, tergov sudyasi, xalq maslahatchilari, sud majlisi kotibi;

7²) jinoyat ishi doirasida hayotiga yoki sog'lig'iga yoxud mol-mulkiga tajovuz tahdidi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lgan protsessi ishtirokchisi maqomini olmagan boshqa shaxslar.

Jinoyat protsessining ishtirokchilari hisoblangan jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari, mansabdor shaxslar ham bevosita protsessual harakatlarni amalga oshirishlari natijasida jinoiy ta'sirlarga duchor bo'lishlari mumkin. Ularga nisbatan xavfsizlik choralari qo'llash zarurati og'ir, o'ta og'ir turdagi jinoyatlar, shuningdek uyubshgan guruh tomonidan, jinoiy uyushma a'zolari tomonidan, jinoyat olamimdagi obro'dor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlarini tergov qilish paytida yanada ortadi.

So'rov natijalariga ko'ra, protsess ishtirorkchilari hisoblangan jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari vakillari, mansabdor shaxslarning o'n ikki foizi o'z vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq holatlarda jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfli ta'sirlariga duchor bo'lganliklari haqida javob berdilar.

Shu bois, jinoyat protsessida xavfsizlik subyektlari toifasiga xavfsizlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari vakillari, mansabdor shaxslarni, shuningdek jinoyat protsessining ishtirokchilari hamda hech qanday jinoiy protsessual maqomga ega bo'lmagan, ammo xavfsizlik ta'minlanishi lozim bo'lgan boshqa shaxslarni ham kiritish lozim hisoblanadi.

Jinoyat protsessual qonunchiligida ishtirokchilar orasida jinoyat protsessida o'z

manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum, oqlangan shaxs, fuqaroviy javobgar, ularning qonuniy vakillari va himoyachilarini ajratib ko'rsatish lozim. Protsess ishtirokchilariga xavfsizlik choralari qo'llashni so'rab murojaat qilish huquqini beruvchi jinoyat-protsessual kodeksda to'g'ridan-to'g'ri norma mavjud emas. Shu bois Jinoyat-protsessual kodeksida ko'rsatilgan protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilovchi tegishli moddalarga ushbu shaxslar xavfsizlik choralari qo'llash uchun murojaat qilish huquqiga egaligini belgilovchi normalarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jinoyat-protsessual munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, o'zgartirish va bekor qilish huquqiga ega bo'lgan vakolatli shaxslar va organlarning vakillari ham qonun ijodkorligi sharoitida jinoyat protsessida xavfsizlik subyektlari hisoblanadilar¹⁹.

Jinoyat protsessida xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar keng va tor ma'noda tahlil qilish mumkin. Keng ma'noda xavfsizlikka tahdidlar xavfsizlik hodisasining tarkibiy qismidir va jinoyat protsessining xavfsizlik obyektlari uchun barcha mumkin bo'lgan xavf manbalari sifatida nomoyon bo'ladi. "Xavf" haqiqatda mavjud bo'lgan tirik organizmga salbiy ta'sir ko'rsatish jarayoni sifatida tavsiflanadi, natijada ushbu organizmning holatini yomonlashtiradigan zararlar yetkazishi mumkin²⁰.

Tor ma'noda "tahdid" kimgadir zarar yetkazish va'dasi, ya'ni qo'rqitish deb tushuniladi²¹. Shu nuqtai nazardan, tahdid jinoyat protsessining xavfsizlik obyektlariga xavf manbai bo'lgan xavfli ta'sirni sodir etish usuli sifatida qaraladi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligini amalga oshirishda xavf manbalari, birinchi navbatda, jinoyat protsessining ishtirokchilari hisoblanadi. Ularning ta'siri tabiatiga ko'ra ma'muriy yoki jinoiy bo'lishi mumkin.

L.V.Brusnisinning fikricha "jinoyat sodir etilgandan keyingi ta'sir" qonun bilan taqiqlangan va boshqa shakllarda odil sudlovga yordam beradigan shaxslarga qarshi jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi²².

Aslida, xavfli ta'sir qilishning ko'plab usullari mavjud: sog'liqqa ziyon yetkazish; hayotdan mahrum qilish; mulkni o'g'irlash, yo'q qilish yoki zarar yetkazish va boshqa harakatlar; ruhiy ta'sir qilish uchun turli shakldagi (ta'qib qilish, o'ldirilgan hayvonlarning jasadlarini tashlab ketish, tahdid bilan yozuvlar yuborish va boshqa) tahdidlarni amalga oshirish, zarar yetkazish, voyaga yetmagan, keksa yoshdagi va ojiz ahvoldagi shaxslarning ojizligidan foydalanish, haqorat, tuhmat qilish, shantaj, poraxo'rlik²³.

Y.A.Yepixin ko'rsatilgan usullarni "pardali" shakldagi ta'sir usullari bilan to'ldiradi: "do'stona" maslahat berish, tegishli muhit va imo-ishoralar bilan qo'llab-quvvatlanadigan turg'un turuvchi tahdidlar. Tadqiqotchi noaniq tahdidlar shaklida ta'sir qilish imkoniyatini ham qayd etadi: "bolalar haqida o'ylang", "sog'lig'ingizga g'amxo'rlik qiling", "bundan

¹⁹ Францифоров Ю.В., Исаев А.Э. О субъектах безопасности в уголовном судопроизводстве // Судебная власть и уголовный процесс. 2019. № 2. С. 35-42.

²⁰ Дзалиев М.И. Основы обеспечения безопасности России. М., 2003. С. 15.

²¹ Ожегов С.И., Шведова Н.И. Ўша манба С. 825.

²² Брусницын Л.В. Правовое обеспечение безопасности лиц, содействующих уголовному правосудию в условиях вооружённых сил Российской Федерации: дис. ... канд. юрид. наук. М., 1997. С. 80.

²³ Зайцев О.А., Щерба С.П., Сарсенбаев Т.Е. Охрана прав беспомощных потерпевших по уголовным делам: пособие / под ред. С.П. Щербы. М., 2001. С.138-139.

yomonroq bo'ladi". Muallifning so'zlariga ko'ra, ta'sir usullari jinoyat protsessi ishtirokchilarining protsessual maqomiga bevosita bog'liq. Jabrlanuvchilarga nisbatan quyidagi ta'sir usullari keng tarqalgan: qimmatbaho mulkni yo'q qilish tahdidi, jabrlanuvchini o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, qo'ng'iroq qilish orqali tahdid qilish; guvohlarga nisbatan urish-do'pposlash, qotillik qilish yoki shunday harakatlarni amalga oshirish haqida tahdid qilish. Surishtiruvchi, yu tergovchi, prokuro va sudyalarga nisbatan: to'g'ri qaror qabul qilish uchun "xayrixoh maslahat", parda shaklida boshqa bosim, to'g'ridan-to'g'ri tahdidlar, shuningdek jismoniy ta'sirlar mavjud²⁴.

Protsess ishtirokchilariga nisbatan sodir etiladigan ta'sirlar yopiq va noaniq shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Bular yuqorida muhokama qilingan ta'sir usullarini anglatadi, ular noqonuniy emas, ammo ularning mazmunidan kelajakda jinoyat protsessining xavfsizligi obyektlariga nisbatan ba'zi zararli oqibatlar yuzaga keladi deb taxmin qilish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, qonunda taqiqlanmagan ko'rsatilgan ta'sir usullari muayyan sharoitlarda xavfli bo'lishi mumkin. Binobarin, nazariy ma'noda ushbu ta'sirlar jinoyat protsessining xavfsizligi obyektlariga xavf manbai sifatida qaraladi va jinoyat protsessida vakolatli davlat organlari tomonidan hisobga olinishi lozim. Biroq, bunday ta'sir usullarini xavfsizlik choralari qo'llash asoslari qatoriga kiritish qiyin, chunki ular qonun bilan taqiqlanmagan.

Shunday qilib, xavfli ta'sir – bu har qanday shaxs tomonidan jinoyat protsessining xavfsizligi obyektlariga nisbatan noqonuniy yoki qonun bilan taqiqlanmagan boshqa vositalar bilan, ma'lum bir maqsadda xavfsizlik asoslarini buzadigan va jinoiy protsessning maqsadlariga zarar yetkazadigan harakat deb tushunish mumkin.

Xavfli ta'sirlarni sodir etilgan (etilayotgan) va kelajakda amalga oshirish ehtimoli katta ta'sirlarga ajratish mumkin.

Xavfli ta'sirni amalga oshirishda gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) va boshqa manfaatdor shaxslar quyidagi natijalarni kutadilar: hibsga olingan shaxsni qamoqdan ozod qilish; jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish shaklida o'zlari istagan protsessual qarorni qabul qildirish; ehtiyot chorasini qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa choraga o'zgartirish; aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish va boshqalar²⁵.

Xavfli ta'sirlarni tahlil qilib, ba'zi mualliflar jinoyat protsessining ishtirokchisiga tajovuz qilish bilan ishtirokchi tomonidan adolat qaror topishiga, haqiqatni aniqlashga yordam berilishi hamda xavfsizlik choralari qo'llash imkoniyati o'rtasida sababiy bog'liqlik yo'qligini tanqid qiladilar²⁶. Bu borada qonun chiqaruvchining pozitsiyasi juda ishonchli ko'rinadi, chunki Qonunda nazarda tutilgan ayrim xavfsizlik choralari jinoiy ish bilan bog'liq xavfli ta'sirga duchor bo'lgan ishtirokchiga nisbatan qo'llash imkoniyatiga bog'liq emas. Boshqacha qilib aytganda, vaziyatlardan qat'i nazar, protsessning ishtirokchisi jinoiy odil sudlovga yordam berishidan qat'i nazar, ushbu ishtirokchiga qarshi xavfli ta'sir ko'rsatilsa, qonunda nazarda tutilgan tegishli xavfsizlik choralari qo'llaniladi.

Ko'pgina hollarda jinoyat protsessining xavfsizlik obyektlariga nisbatan xavfli ta'sirlar gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) va uning atrofida: jinoiy sheriklari, jinoiy guruh a'zolari, ularning qarindoshlari va yaqin shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. Biroq, ba'zida xavf

²⁴ Епихин А.Ю. Ўша манба С. 159-162

²⁵ Епихин А.Ю. Указ. соч. С. 152-

²⁶ Авдеев М.А. Указ. соч. С. 23.

manbaiga ega bo'lgan protsess ishtirokchilari hisoblanadi. Ularning xavfli ta'siri qasddan va bexosdan bo'lishi mumkin; bu axloqiy buzilish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin, intizomiy huquqbuzarlik yoki jinoyat toifasiga kirishi mumkin.

Tergov harakatlarini amalga oshirish chog'ida tergovchi tomonidan turli texnik vositalar (qurilmalar, moslamalar) dan noto'g'ri foydalanish unda ishtirok etuvchi shaxslarning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin. A.E. Fedyunin bu yo'nalishda o'z qarashlarini quyidagicha ifodalaydi: "texnik vositalardan foydalanish protsess ishtirokchilari va atrof-muhit xavfsizligiga tahdid solmasligi lozim"²⁷.

Xavfsizlik tahdidlarini keltirib chiqaradigan vakolatga ega bo'lgan protsess ishtirokchilarining noqonuniy harakatlari ham harakat, ham harakatsizlik shaklida sodir etilishi mumkin. Jabrlanuvchi yoki guvoh tergovchiga jinoyat ishi qo'zg'atilganda gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) tomonidan unga og'zaki tahdidlar qilinishi munosabati bilan xavfsizlik choralarini qo'llashni so'rab iltimosnoma bilan murojaat qilganda va tergovchi arizani ko'rib chiqishni kechiktirsa yoki xavfsizlik choralarini o'z vaqtida qo'llamasa, yoki jinoyat ishini ko'rib chiqishni kechiktirsa, u (tergovchi) aslida harakatsizlik qilayotgan bo'ladi. Faol harakatga misol qilib jabrlanuvchi, guvoh haqidagi ma'lumotlarni manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazish mumkin bo'lgan holatni keltirish mumkin.

Jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan organlar, mansabdor shaxslarning jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga zid bo'lgan protsessual harakatlarni amalga oshirishda qonunga rioya etmasliklari ish bo'yicha qonuniy asosli bo'lmagan qaror qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatlarga yo'l qo'yilishini oldini olish va kamaytirish maqsadida amaldagi qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan.

Jinoyat kodeksining 238-moddasida, surishtiruv olib borish, dastlabki tergov yoxud ishni sudda ko'rish chog'ida yolg'on ko'rsatuvlar berish uchun guvohni yoki jabrlanuvchini yoki yolg'on xulosa berish uchun ekspertni yoxud noto'g'ri tarjima qilish uchun tarjiminni pora evaziga og'dirib olish, xuddi shuningdek ularga yoki ularning yaqin qarindoshlariga ruhiy, psixologik, jismoniy ta'sir ko'rsatish yoki boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatish orqali yolg'on ko'rsatuv berishga majbur qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shunday qilib, jinoyat protsessining har qanday ishtirokchisi xavfli ta'sir manbai bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, jinoyat protsessining har qanday ishtirokchisi, hech qanday protsessual maqom olmagan shaxslar (ariza beruvchi, jinoyat shohidi va boshqalar.); ularning qarindoshlari va yaqin odamlariga nisbatan xavfli ta'sir ham amalga oshirilishi mumkin.

Jinoyat protsessi sohasidagi xavfsizlikka tahdidlarni tergov qilishda, protsess ishtirokchilari nafaqat boshqalar uchun, balki o'zlari uchun ham xavf manbai bo'lgan holatlarni eslatib o'tish lozim. Masalan, jabrlanuvchiga, guvohga nisbatan shaxsiy himoya kabi davlat muhofazasi chorasi qo'llaniladigan vaziyatda telefonini o'chirib, uning xavfsizligini ta'minlaydigan xodimlarga o'z joylarini oshkor qilmaslik holatlariga yo'l qo'yishadi.

Manbaning tabiati bo'yicha jinoyat protsessi ishtirokchilariga qarshi xavfsizlik tahdidlarini ichki va tashqi qismlarga bo'lish mumkin. Tashqi tahdidlarga gumon qilinuvchi (ayblanuvchi), uyushgan jinoiy guruhlar va jinoyat ishi natijasidan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan tahdidlar kiradi. Ichki tahdidlar jinoyat

²⁷ Федюнин А.Е. Правовое регулирование применения технических средств в сфере уголовного судопроизводства: дис. ... д-ра юрид. наук. Саратов, 2008. С. 78.

protsessining protsessual vakolatga ega ishtirokchilari: tergovchi, surishtiruvchi, prokuror, sudya, shuningdek muayyan jinoyat ishi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan boshqa mansabdor shaxslardan kelib chiqishi mumkin²⁸.

Y.V.Jarikov dastlabki tergov va sud ishlarini yuritish tartibini xavf manbai deb hisoblash zarurligi haqida gapiradi. Samarali xavfsizlik, uning fikriga ko'ra, belgilangan protseduralarni sezilarli darajada o'zgartirgandan keyingina ta'minlanishi mumkin. Surishtiruv, tergovga ko'maklashadigan shaxslarga zarar yetkazish real xavfi mavjud bo'lgan jinoyat ishlarining ayrim toifalarida ish yuritishda alohida yondashuv talab etiladi²⁹.

Ushbu nuqtai nazar e'tiborga loyiq bo'lib, bu borada kerakli tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi. Bundan tashqari, faqat jinoyat-protsessual shaklining farqlanishi inson omilini, ya'ni xavfli ta'sirlar ehtimoli hech qachon bartaraf etilmasligini ko'rsatadi. Binobarin, dastlabki tergov va sud ishlarini yuritishni takomillashtirish orqali jinoyat protsessida xavfsizlik obyektlarining xavfsizligi holatining maksimal darajasini ta'minlashga erishib bo'lmaydi. Bunda jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslar uchun xavfsiz sharoitlarni yaratishga qaratilgan qo'shimcha protsessual vositalarni tadbiq etish talab etiladi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil
2. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabr kungi "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4551-sonli Qarori.
4. Isaev A.E. Fenomen ugolovno-protsessualnoy bezopasnosti // Sovremennaya yuridicheskaya nauka i praktika: sb. nauch. st. po mater. IV mejdunar. nauch.-prakt. foruma. Saratov, 2019. S. 233-236.
5. Brusnitsin L.V. Obespechenie bezopasnosti lis, sodeystvuyushix ugolovnomu pravosudiyu: mirovoy opyt i razvitie rossiyskogo zakonodatelstva (protsessualnoe issledovanie). M., 2010. S. 3;
6. Shapakidze V.Ya. Obespechenie protsessualnoy bezopasnosti chastnykh lis v dosudebnom ugolovnom proizvodstve: dis. ... kand. yurid. nauk. Volgograd, 2002. S. 12; Yepixin A.Yu., Mishin A.V. Obespechenie bezopasnosti lis, sodeystvuyushix ugolovnomu sudoproizvodstvu. Kazan, 2018. S. 26.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam uchun davlat hisobidan haq to'lash mexanizmini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2008-yil 20-iyundagi 137-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi va Moliya vazirligining "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 2008-yil 26-noyabrdagi 8-son, 109-sonli qarori (02.12.2008-yilda 1878-son bilan Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan)

²⁸ Макеева Н. Угрозы безопасности участников уголовного судопроизводства // Закон и право. 2007. № 8. С. 64-65.

²⁹ Жариков.Е.В. Ўша манба. С. 28

9. Yepixin A.Yu. Konsepsiya obespecheniya bezopasnosti lichnosti v sfere ugovnogo sudoproizvodstva: dis. ... d-ra yurid. nauk. Syktyvkar, 2004. S. 114-131.
10. Brusnitsin L.V. Pravovoe obespechenie bezopasnosti lis, sodeystvuyuyx ugovnomu pravosudiyu. M., 1999. S. 3
11. Isaev A.E. Fenomen ugovno-protsessualnoy bezopasnosti // Sovremennaya yuridicheskaya nauka i praktika: sb. nauch. st. po mater. IV mejdunar. nauch.-prakt. foruma. Saratov, 2019. S. 233.
12. Fransiforov Yu.V., Isayev A.E. O sub'ektax bezopasnosti v ugovnom sudoproizvodstve // Sudebnaya vlast i ugovnyy protsess. 2019. № 2. S. 35-42.
13. Dzlhev M.I. Osnovy obespecheniya bezopasnosti Rossii. M., 2003. S. 15.
14. Zaysev O.A., Щerba S.P., Sarsenbaev T.Ye. Oxrana prav bespomoshnykh potervevshix po ugovnym delam: posobie / pod red. S.P. Щerby. M., 2001. S.138-139.
15. Fedyunin A.Ye. Pravovoe regulirovanie primeneniya texnicheskix sredstv v sfere ugovnogo sudoproizvodstva: dis. ... d-ra yurid. nauk. Saratov, 2008. S. 78.
16. Makeeva N. Ugrozy bezopasnosti uchastnikov ugovnogo sudoproizvodstva // Zakon i pravo. 2007. № 8. S. 64-65.



INNOVATIVE
ACADEMY